



**Journal of  
NATURAL SCIENCE**

<http://natscience.jspi.uz>

**№5/3(2021)**

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TABIY FANLAR FAKULTETI**

*dotsenti, kimyo fanlari nomzodi*

**DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH**

*tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan*

onlayn konferensiya materiallari



**Jizzax-2021**

<b><u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u></b>	<b><u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u></b>
<b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц. <b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц. <b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова	1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор 7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор 8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф. 11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф 12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b>	
Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)	
Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул	
Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

## QORAKO‘LCHILIKDA TANLASH USULLARI

*Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘g‘li, o‘qituvchi*

*Yo‘ldasheva Shahina Baxtiyor qizi*

*Azimov Nodir Qodir o‘g‘li*

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Tanlash – bu ko‘p qo‘ylar orasidan naslchilik ishida foydalanish uchun eng yaroqli bo‘lgan istiqbolli tipdagi individlarni saralab hayvonlarni brak qilishdan iborat. Tabiiy tanlash va suniy tanlash farq qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** naslchilik zavodlari, naslchilik ishlarini tashkil qilish, nasl-reproduktor xo‘jaliklar, naslchilik ishini tashkil qilish, nasldor qo‘ylar, elita sovliq va tusoqlar, duragay qorako‘l qo‘ylar, prepotentlik, bilvosita tanlash, stabillashtiruvchi tanlash, belgilarning irsiylanishi, korrelyasiyasi, regressiyasi

Tabiiy tanlanish natijasida qo‘ylarda turli belgilar o‘rtasida korrelyasiya – bog‘lanish (munosabat) rivojlanadi. Ushbu munosabatlar keskin buzilgan taqdirda hayvonlarning rivojlanishida normadan chetlashish sodir bo‘lishi va ashahga noqobil organizm vujudga kelishi mumkin. Tabiiy tanlanish normal rivojlangan, yashashga qobiliyatli, mazkur ekologik sharoitga yaxshi moslashgan qo‘zilar vujudga kelishi va yashab qolishiga yordam beradi. Tabiiy tanlanish suniy tanlash bilan birgalikda ekologik, konstitutsional va zavod tiplarining vujudga kelishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Suniy tanlash sinchkov zootexnikning mohir qo‘lida hayvonga ta‘sir ko‘rsatish va yangi formalar yaratishning qo‘dratli vositasidir. Tanlash qaysi yo‘nalishda olib borilsa, xuddi shu yo‘nalishda zarur bo‘lgan xayvonlar vujudga keladi. U metodik tanlash protsessida yangi naslda eng qimmatli xossalar va belgilarni to‘plab, kuchaytirib hamda mustahkamlab borishi, Yuqori mahsuldorlik sifatlari bilan farq qiladigan liniyalar, oilalar, podalarni vujudga keltirish kerak.

Suniy tanlash ongsiz va metodik xillarga bo‘linadi:

Ongsiz tanlash kishilik madaniyatining ilk bosqichlarida o‘tkazilgan, u vaqtda xonaki sharoitda urchitish uchun yuvosh, yaxshi go‘shdorlik formalariga, sersutlik, serjunlik va boshqa sifatlarga ega bo‘lgan qo‘ylar olib qolinar edi.

Fan va praktikaning hozirgi rivojlanishi uchun fenotipik, genotipik, bilvosita, stabillashtiruvchi, texnologik tanlashni o‘z ichiga olgan metodik tanlash xarakterlidir. Fenotipik tanlash, ya‘ni yalpi hayvonlarning individual ko‘rsatkichlari – mahsuldorligi, ekstereri, konstitutsiyasi va umumiy rivojlanishi asosida olib boriladi. Yalpi tanlashda matlub belgilarga hayvonlar esa brak qilinadi. Bunday

tanlash biror belgining etarli darajada barqarorligiga erishilguncha avloddan-avlodga davom ettirila beradi.

Genotipik tanlash qo‘ylarga kelib chiqishi (ular ajdodlari va yon qarindoshlarining fenotipi bo‘yicha) va naslchining sifatiga qarab baho berishni o‘z ichiga oladi. Bu xil tanlash avloddan-avlodga o‘tgan sayin populyasiyada doimiy genotipik o‘zgarishlarni (genlar chastotasi o‘zgarishini) keltirib chiqarishi va bu bilan evolyusion moslanishiga yordam berishi mumkin bo‘lgan faktorlarni qamrab oladi. Tanlash yangi genetik o‘zgaruvchanlikni keltirib chiqarmaydi, balki potensial o‘zgaruvchanlik alohida genetik o‘zgarishga aylanishiga yordam beradi. U mavjud o‘zgaruvchanlikdan foydalanib, butun xromosomalarni qayta kombinatsilashtirish va qo‘lay krossover tiplarni saqlab qolish yo‘li bilan genlar chastotasini o‘zgartiradi.

Bilvosita tanlashda – nisbiy o‘zgaruvchanlik qonuniga asoslanadi. Bunday tanlash hayvonlarning muayyan belgilari bilan korrelyasiyalanuvchi o‘zgarishlarga bog‘liqdir. Masalan, dag‘al jun-konstitutsional tipning rivojlanishi yangi naslda yirik jingalakli qo‘zilar, qalin mezdrali qoraqo‘l terilar miqdori ko‘p bo‘lishi bilan korrelyasiyalanadi. Bunday korrelyasion belgilar anchagina. Boshqacha qilib aytganda, tanlanayotgan belgilar korrelyasiyasiga bog‘liq o‘zgarishlar boshqa, tanlashning bevosita ta’siriga uchramagan belgilar bilan bog‘liqdir.

Stabillashtiruvchi tanlashdan maqsad organizmdagi ayrim ijobiy belgilari mustahkamlash emas, balki tanlab olingan mahsuldorlik yo‘naligiga xos bo‘lgan umumiy tipni stabillashtirishdang iborat. Stabillashtiruvchi tanlash formasi ko‘proq doimiy bo‘lgan, ya’ni tashqi sharoitga kamroq bog‘liq bo‘lgan sistemada yaratilishiga olib keladi.

Texnologik tanlash qorako‘lchilikda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tishiga qarab brak qilingan saovliqlarni qorakulcha olish uchun tanlash yoki arzon go’sht etishtirish uchun 8 oylik bulguncha semirtiriladigan ax’ta qo‘zilarni tanlash bunga misol bo‘ladi.

Ma’lumki, tanlash samaradorligi, avvalo, genetik parametrlarga va tashki muhit sharoitiga bog‘liqdir.

Tanlashning genetik parametrlari:belgilarning irsiylanishi, korrelyasiyasi, regressiyasi (o‘rtacha holatga qaytish tendensiyasi), prepotentlikdan iborat.

Irsiylanish (nasldan-naslga o‘tish) genetik tafovutlar bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy fenotipik o‘zgaruvchanlikning ulushini ifodalaydi.Belgining irsiylanish koeffitsienti qancha katta bo‘lsa, tanlash samaradorligi sho‘uncha yuqori bo‘ladi.

Irsiylanish koeffitsienti tanlash olib borilayotgan podadagi bir gruppada hayvonlarni baholovchi statistik miqdordir.

Takrorlanish har xil yoshdagi muhit sharoiti o'zgargan patdagi ota-ona genetik informatsiyasining bir avlod naslida ruyobga chiqish formasidir. Takrorlanish koeffitsienti korrelyasiya koeffitsientiasosida aniqlanadi.

Belgilar korrelyasiyasi ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni keltirib chiqaradi, bu bog'liqlik shunda namoyon bo'ladi, ulardan birining o'zgarishi ikkinchisining korrelyativ o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Korrelyasiyaning adaptatsiya, selektiv, genetik va fenotipik turlari farq qilinadi:

Selektiv korrelyasiya adaptiv korrelyasiya vujudga kelganidan keyin tanlashning bilvosita ta'siri natijasida bir gruppaga belgilarning birgalikda saqlanib qolishidan iborat.

Genetik korrelyasiya kuzatilayotgan ikki belgining o'zgaruchanligida ular uchun umumiy bo'lgan genetik ta'sir asosida yuzaga keladigan parallelizmdir. Genetik korrelyasiyani ikki turga: so'zning g'oyat keng ma'nosidagi sof genetik – genlarning pleiotrop, ya'ni ko'p tomonlama ta'siri orqasida kelib chiqqan korrelyasiyaga hamda birgalikda irsiylanadigan ikki gen o'rtasida genetik munozarat qaror topishi natijasida kelib chiqqan genetik korrelyasiyaga ajratish mumkin.

Regressiya belgilarning o'rtacha qaytish tendensiyasidir. Muayyan sinfga mansub individlarning o'rtacha populyasiyadagi chetlashishi bilan ular naslining o'rtacha chetlashishi o'rtasidagi nisbat, odatda, ota-onaning chetlashishidan ko'ra kamroq bo'ladi. Galton bu hodisani irsiyat qonuni deb izohlangan. Ammo aslida u irsiy faktorlar bilan tashqi muhit faktorlarining bir vaqtda ta'sir etishi natijasidir.

Regressiya – bu bir belgining u bilan korrelyasiyalanuvchi boshqa belgining muayyan miqdorda o'zgarishiga bog'liq holda o'zgarishi (kamayish yoki ko'payish) meyoridir. Ma'lumki, eng chetki ota-ona tiplarining tur uchun o'rtacha bo'lgan tipga yaqinlashish tendensiyasi ko'p darajada ifodalanganidir. Yaxshi ota-ona hayvonlarning naslli kutilganidan birmuna yomonroq, yomon ota-ona hayvonlarning naslli esa birmuncha yaxshiroq bo'lib chiqadi.

Prepotentlik - ota-onaning o'z sifatlarini nasliga muttasil (aynitmay) o'tkazish qobiliyatidir. Prepotentlik regressiya qarama-qarshidir, chunki u ota-ona belgilarining yangi naslga o'zgarishini o'tishda ifodalanadi. Ota-ona hayvonlar ijobiy va salbiy sifatlari bo'yicha prepotent bo'lib chiqishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Maqsudov, J.Ya.Jo‘raev SH.Q.Amirov -Chorvachilik asoslari Toshkent,2012.
- 2.Nurislom Tuxliyev-O‘zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik Ma‘lumotnoma “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
- 3.Sindorov,A.,&Azimov,N.(2020).QORAKO‘LZOTLIQO‘YBIOLOGIYASI. Журнал естественных наук,7(1).
- 4.Sindorov,A.,&Azimov,N.(2020).QO‘YLARNIURCHITISH. Журнал Естественных наук,7(1).
- 5.Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘gli, Azimov Nodir Qodir o‘g‘li, & Erkinova Nargiza O‘tkir qizi.(2021).QORAMOLLARNING ICHKI TUZILISHI (INTERERI).Журнал естественных наук,7(4).